

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Abdualiyev

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) 101

M.X.Otamirzayeva

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari 108

ILMIY AXBOROT**M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov**

Sintaktik-stilistik figuralar konvergentsiyasi 115

A.A.Mirzayev

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari 119

J.J.Shodiyev

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari 125

M.И.Темирова

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari..... 130

A.M.Mamajonov

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari 135

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) 141

J.U.Umaraliyeva

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi 144

D.S.Ergasheva

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish 148

D.X.G'aniyeva

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari 153

X.X.Abduraxmonov

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish 157

G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) 161

O.Q.Abdullayev

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari..... 164

J.Sh.Nazarov

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati 168

Sh.F.Latipov

Madaniy kontekstda lakunaga yondosh hodisalar 173

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi..... 175

Sh.M.Robilova

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati..... 179

M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar..... 183

R.R.Abdusattorov

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari..... 186

H.Arabboyev

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi 192

F.Xalikov

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari 197

M.I.Yusupova

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi 204

MADANIY KONTEKSTDA LAKUNAGA YONDOSH HODISALAR

ФЕНОМЕНЫ, СВЯЗАННЫЕ С ЛАКУНАМИ, В КУЛЬТУРНОМ КОНТЕКСТЕ

LACUNA-RELATED PHENOMENA IN A CULTURAL CONTEXT

¹Latipov Sherzod Foziljonovich¹Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada tillarning lug'aviy qatlamini qiyoslash orqali hosil bo'ladigan hodisalardan biri bo'lgan lakunaning lingvomadaniy kontekstda realiyadan farqli jihatlarini xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, olamning ilmiy manzarasida har qanday narsa va voqelik mavjudlik-bo'shliqning uyg'unligidan rivojlanganidek, tilshunoslikda, ayniqsa leksik sathda muayyan o'rini to'ldirish ehtiyoji bo'lgan bo'shliqlar ham mavjudligi qayd etilgan. Ekvivalentlik, lakuna va realiya hodisalari orasidagi farqlar misollar yordamida izohlangan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются аспекты лакуны, которая является одним из явлений, образующихся при сопоставлении лексических пластов языков, отличительных от действительности в лингвокультурном контексте. Также отмечается, что в научном ландшафте мира, поскольку любая вещь и реальность развивается из гармонии экзистенциального пространства, в лингвистике, особенно на лексическом уровне, также существуют пробелы, нуждающиеся в заполнении. С помощью примеров поясняются различия между явлениями эквивалентности, лакуны и реальности.

Abstract

This article discusses aspects of the lacuna, which is one of the phenomena formed by comparing the lexical layers of languages, which are different from reality in the linguistic and cultural context. Also, it is noted that in the scientific landscape of the world, as any thing and reality develops from the harmony of existence-space, in linguistics, especially at the lexical level, there are also spaces that need to be filled. The differences between the phenomena of equivalence, lacuna and reality are explained with the help of examples.

Kalit so'zlar: leksik sath, bo'shliq, lakuna, realiya, lingvomadaniyat, leksik birliklar, hodisa.

Ключевые слова: лексический уровень, пробел, лакуна, реальность, лингвокультура, лексические единицы, событие.

Key words: lexical level, gap, lacuna, reality, linguistic culture, lexical units, event.

KIRISH

Til o'z tabiatiga ko'ra inson faoliyatining epistemologik jihatini, ya'ni bilimlarni sintez qiluvchi, tartibga solingan yaxlitligi bo'lib, muayyan strukturaga ega ekan, unda ifodalab bo'lmaydigan ayrim bo'shliqlarning borligi tabiiy holatdir. Zero, "bor va yo'q orasidagi tafovutni farqlash juda oddiy ko'rinadi, biroq aslida unisi ham, bunisi ham o'zaro mustahkam bog'langan va shuning uchun ularni bir-biridan ajratish juda mushkul"[1.16]. Bugungi zamonaviy fan uchun shu narsa aniqki, har qanday narsa va predmet mavjudlik-bo'shliqning uyg'unligidan rivojlanadi. Tilshunoslikda, ayniqsa leksik sathda muayyan o'rni bilinib turadigan bo'shliqlar ham borligi qayd etiladi. Xususan, F.Gumbolt, F.de Sossyur bunday birliklarni "bo'sh katakchalar" [2] sifatida baholangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tillarning leksik birliklarini qiyoslanishi, so'zning muayyan tilda ifodalanishi, tilshunoslikning doimiy va muhim masalalaridan biri sanaladi. O'zbek tilshunosligining asoschisi bo'lgan Alisher Navoiy turkiy va fors-tojik tillarini qiyoslab, ayni bir tildagi so'zga boshqa tilda muqobil so'z mavjud bo'lmavligini misollar orqali isbotlab beradi. Bo'shliq sifatida qaraladigan lakuna atamasi kanadalik olimlar J.Vine va J.Darbelne tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan[7]. Shuningdek, I.Sternin lakuna hodisasining lingvistik jihatdan tadqiq etib, uning bir til ichida ham kuzatilishini ta'kidlaydi.[3] G.Bikova esa lakunani rus tili misolida tavsiflab beradi. O'zbek tilshunosligida lakuna bo'yicha D.Xudoyberganova, Sh.Usmanova, Z.Xolmanova, N.Ismatullaeva, A.Hasanov kabi olimlarning qarashlari alohida ahamiyatga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Lakuna lingvomadaniy birlik sanaladi. Chunki, lakuna xalqning madaniyati va urf-odatlar ta'sirida paydo bo'ladi. To'g'ri lakunaga yondosh bo'lgan realiya atamasi ham lingvomadaniy birlik sifatida talqin etilgan, ikkisi ham madaniyat bilan uzviy aloqador hodisa. Biroq realiya muayyan bir millat tili va madaniyatigagina xos birlik bo'lib, o'zga tilda uning tushunchasi, ya'ni narsa-

predmetning o'zi ham bo'lmasligi, ularning ikki xil hodisa ekanligidan dalolat beradi. "Realialar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti va madaniyatini tashkil etuvchi insonlar, voqealar, institutlar narsa-buyumlar" sifatida baholansada, ularning qamrovi va chegaralari nisbiylashuvi natijasida talqinlarning turfa xillik kasb etishi u haqidagi izohlarning bir-biridan farqlanishini yuzaga keltiradi.

Realialar ayni bir millat taraqqiyoti va madaniyati mahsuli bo'lib, boshqa xalqda uchramaydigan narsa-buyumlar, shaxslar, joylar va shu xalqqa oid tarixiy jarayonlarni ifodalovchi birliklar bo'lib, ular, odatda, boshqa xalq uchun notanish tushunchalardir. Realianing muayyan millatga xos tushunchalarnigina qamrab olishi uning milliy-lisoniy birlik sifatida o'zga til va madaniyat uchun g'ayritabiyligini yuzaga keltiradi. Lakuna va realianing o'xshash tomonlari: ular ikki til va madaniyatni qiyoslaganda namoyon bo'ladi hamda qiyoslanuvchi tillarning birida ularga muqobil so'z mavjud bo'lmaydi. Realiyada g'ayriodatiylik, notanishlik, g'ayritabiylilik sezilib turadi. Ta'kidlash joizki, realiya va lakunaning eng muhim farqi lakuna muayyan millat ongida mavjud bo'ladi, biroq shu millat tilida leksema tarzida uchramaydi; uni shu millat vakillari ham, boshqa til sohiblari ham osongina tushunadi va idrok etadi. Masalan, quyidagi hikoyatda "ko'r tugun" iborasi lakuna sanaladi. *Rasulullah sallallahu alayhi va sallam ga Oysha onamiz:*

- "Meni sevasizmi ya Rasulullah?" deb so'raganlarida.

- "Albatta sevaman ya Oysha!" degan ekan.

Lekin bu javob, Hazrati Oyshaga yetmaganidan yana savol beribdilar:

- "Meni qanday sevasiz ya Rasulullah?"

- "Ko'r tugun kabi!" degan ekan Sarvari olam sallallahu alayhi va sallam.

Ko'r tugun nima bilasizmi? Ko'r tugun, hech qachon yechilmaydi. Sirga to'la ko'r tugun. Toki kesilmaguncha, uni hech kim yecha olmaydi...

Matndagi ibora faqat chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqqa tanish bo'lgani bois lakuna sifatida baholanish mumkin. Atrof-olamda mavjud bo'lgan har qanday tushuncha, ong orqali idrok etilar ekan, albatta uni so'z orqali voqelantirish, atash, xususiyatlariga munosib lisoniy ifodani topish ehtiyoji shakllanadi: "insondagi bilim doirasining muttasil ravishda kengayib turishi tilda bu jarayonlarning doimo yangi atama (nom)lar bilan ifodalanib turishini talab qiladi". Bunday holatda yangi tushunchalarni nomlash quyidagicha hosil bo'ladi:

1. Yangi narsa –hodisani ifodalovchi yangi tushunchaga umuman yangi nom qo'yadi;

2. Muayyan bir til uchun yangi tushunchani unga o'xshash tushuncha nomi bilan metaforik qayta nomlaydi. Ta'kidlash joizki, metaforik qayta nomlash ikkilamchi nominatsiya sanalib, aksariyat bu usul faol qo'llaniladi. Zero yangi so'z jamiyat a'zolari tomonidan osonlikcha tushunilmaydi.

Har bir tildagi lisoniy birliklarning o'z qiymati va xalqning til xazinasida o'rni, ahamiyati mavjud. Biroq til sohiblari uni o'rganish va undan foydalanish jarayonida so'zlarni o'zaro qiyoslash, solishtirish hamda eng maqbulini shaxsning lisoniy zaxirasida saqlanish (xotirada tutish) imkoniyatiga ega bo'lgani uchun ham tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlarni o'rganishga intilmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, lakuna lingvomadaniy birlik hisoblanadi, mazkur hodisaning boshqa yondosh tushunchalardan farqi, lakunaga lisoniy zaxirada leksemalar bilan ifodalanmagan tushuncha tarzida yondashish talab etiladi. Tillar qiyosida esa uni muqobilsiz leksika sifatida baholash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фердинанд Де Соссюр. Умумий тилшунослик курси (рус тилидан И.Мирзаев таржимаси). – Т., "NAVOIY UNIVERSITETI" нашриёт-матбаа уйи, 2019. – Б. 16
2. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М., 1985. С.300-304.
3. Стернин И.А. Лексическая лакунарность и понятийная безэквивалентность. - Воронеж, 1997. С. 18
4. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зоҳидова. Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2
5. D Yuldasheva. Anthropocentric approach to children's speech study. Конференции.
6. YD Maxamadaliyeva, M Matmusaeva. On Lingvofolcloristic Units. International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171